Ключевые слова: корпоративная социальная ответственность, строительная отрасль, ESG, корпоративное управление, устойчивое развитие, международный опыт, экологический аудит, инвестиционная привлекательность.

KIRISH

Global iqtisodiyotda barqaror rivojlanish konsepsiyasining ustuvor ahamiyat kasb etishi korporativ ijtimoiy mas'uliyat (KIM)ni zamonaviy biznes faoliyatining muhim institutsional elementiga aylantirmoqda. Ayniqsa, yuqori resurs sarfi, ekologik ta'sir darajasi va ijtimoiy ahamiyati bilan ajralib turuvchi qurilish sohasi KIM tamoyillarini tizimli joriy etishni talab etadi. Qurilish tarmog'i jahon miqyosida umumiy energiya iste'molining qariyb 35–40 foizini hamda atmosfera chiqindilarining taxminan 30 foizini tashkil etishi bilan ekologik barqarorlikka bevosita



ta'sir ko'rsatuvchi yetakchi sohalardan biri hisoblanadi. Shu jihatdan, mazkur tarmoqda korporativ ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish va rivojlantirish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega [1].

Xalqaro amaliyotda korporativ ijtimoiy mas'uliyat ESG (Environmental, Social, Governance) standartlari orqali baholanadi hamda kompaniyalarning investitsiya jozibadorligi va raqobatbardoshligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Rivojlangan mamlakatlarda qurilish sohasida "yashil qurilish" standartlari, ekologik audit, ijtimoiy hisobot va barqaror infratuzilma loyihalari keng joriy etilgan. Bunday yondashuv kompaniya faoliyatini faqat iqtisodiy natijalar bilan emas, balki ijtimoiy va ekologik samaradorlik ko'rsatkichlari asosida ham baholash imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasida ham korporativ boshqaruv va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Jumladan, Prezident farmonlari va qarorlari orqali davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ boshqaruvni takomillashtirish, shaffoflik va hisobdorlikni oshirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilab berilgan. Yangi taraqqiyot strategiyasida barqaror rivojlanish va "yashil iqtisodiyot"ga o'tish vazifalari ilgari surilgan bo'lib, bu holat qurilish sohasida KIMni joriy etishning huquqiy hamda institutsional asoslarini mustahkamlaydi.

Shu bilan birga, milliy iqtisodiyot sharoitida korporativ ijtimoiy mas'uliyat ko'p hollarda xayriya yoki bir martalik ijtimoiy tadbirlar bilan cheklanib qolmoqda. Qurilish korxonalarida ESG hisobot tizimi, ekologik audit va barqarorlik strategiyasi yetarli darajada shakllanmagan. Bu esa xalqaro tajribani chuqur tahlil qilish va uni milliy shart-sharoitlarga moslashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Korporativ ijtimoiy mas'uliyat (KIM) konsepsiyasi zamonaviy iqtisodiy nazariyada kompaniya faoliyatining ijtimoiy va ekologik oqibatlarini hisobga olgan holda boshqaruv qarorlarini qabul qilishni nazarda tutuvchi kompleks yondashuv sifatida talqin etiladi. Ushbu tushuncha korporativ boshqaruv, barqaror rivojlanish hamda ESG (Environmental, Social, Governance) mezonlari bilan uzviy bog'liq holda shakllangan.

Xalqaro tadqiqotlarda KIMning institutsional asoslari va strategik ahamiyati keng o'rganilgan. Jumladan, Sohail Ahmad Javeed va hammualliflar direktorlar kengashi tarkibida barqarorlik qo'mitasining mavjudligi korporativ ijtimoiy mas'uliyat darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ilmiy jihatdan asoslaganlar [2]. Ularning fikricha, gender xilma-xillik va aksiyadorlik konsentratsiyasi KIM samaradorligini oshiruvchi muhim omillar hisoblanadi. Ushbu xulosa KIMni korporativ boshqaruvning yuqori darajadagi institutsional elementi sifatida ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Huma Sarwar va hammualliflar KIMni raqobatbardoshlik hamda dinamik qobiliyatlar bilan bog'liq holda tahlil qilib, ijtimoiy mas'uliyatli strategiyalar kompaniyaning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligini ta'minlashini ta'kidlaydilar [3]. Ular KIM faqat axloqiy majburiyat emas, balki biznes samaradorligini oshirishning muhim vositasi ekanligini asoslab beradilar.

Meili Tang va Yu Wang tadqiqotlarida soliq imtiyozlari hamda davlat rag'batlantirish mexanizmlari KIM faolligini kuchaytirishda muhim rol o'ynashi qayd etilgan. Ushbu yondashuv davlat siyosatining korporativ ijtimoiy mas'uliyatni institutsionallashtirishdagi ahamiyatini ko'rsatadi [4].

Noora Alhosani va Haitham Nobanee direktorlar kengashida gender xilma-xillik KIM samaradorligini oshirishini bibliometrik tahlil asosida isbotlaganlar. Ushbu tadqiqot KIMni korporativ madaniyat va boshqaruv tuzilmasi bilan uzviy bog'liq holda ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi [5].

Yi Luo va hammualliflar esa direktorlar kengashining xalqarolashuv darajasi KIM ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydilar. Bu holat global bozorga integratsiyalashgan kompaniyalarda ijtimoiy va ekologik standartlar nisbatan yuqori bo'lishini anglatadi [6].

Mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan ham korporativ boshqaruv va KIM masalalari tadqiq etilgan. Jumladan, D. Suyunov va E. Xoshimov aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv samaradorligini baholash metodologiyasini ishlab chiqqan hamda KIMni mazkur tizimning muhim tarkibiy qismi sifatida asoslab berganlar. E. Xoshimov va M. Murataev korporativ ijtimoiy mas'uliyatni aksiyadorlik jamiyatlarida boshqaruv tizimini takomillashtirishning muhim yo'nalishi sifatida baholaganlar. Z. A. Ashurov esa O'zbekistonda KIMni joriy etish muammolarini tahlil qilib, huquqiy va institutsional cheklovlarni qayd etgan [7].

Shu bilan birga, ko'pgina tadqiqotlarda KIM umumiy korporativ boshqaruv yoki sanoat tarmoqlari miqyosida o'rganilgan bo'lib, qurilish sohasi misolida kompleks qiyosiy tahlil yetarli darajada amalga oshirilmagan. Ayniqsa, xalqaro modellarni milliy iqtisodiy va institutsional sharoitlarga moslashtirish mexanizmlari yetarlicha chuqur tadqiq etilmagan.

Demak, mavjud ilmiy ishlar KIMning nazariy va amaliy jihatlarini keng yoritgan bo'lsa-da, qurilish sohasida uni joriy etishning tarmoq xususiyatlari, ekologik xavf omillari hamda milliy iqtisodiyot sharoitidagi institutsional imkoniyatlari bo'yicha tadqiqotlar yetarli emas. Mazkur holat ushbu maqolaning ilmiy ahamiyatini belgilaydi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda O'zbekiston qurilish korxonalarida korporativ ijtimoiy mas'uliyat (KIM)ning amaldagi holatini aniqlash hamda uni rivojlantirish istiqbollarini asoslash maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik usullar uyg'unlashtirildi. Xususan, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganish, qiyosiy tahlil, statistik ma'lumotlarni umumlashirish hamda tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. Empirik qismda qurilish korxonalarining ochiq hisobotlari, tarmoq statistikasi va ekspert baholari asosida KIMning joriy etilish darajasi baholandi. Olingan natijalarni izohlashda induksiya va deduksiya usullaridan, shuningdek, mantiqiy tahlil va sintezdan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qurilish sohasida korporativ ijtimoiy mas'uliyat (KIM/CSR) tobora strategik ahamiyat kasb etmoqda, chunki ushbu tarmoqning ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy ta'siri nihoyatda keng ko'lamlidir. Qurilish jarayonlari tabiiy resurslardan intensiv foydalanish, katta hajmdagi chiqindilar hosil bo'lishi hamda yuqori energiya sarfi bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, mazkur soha millionlab ish o'rinlarini yaratishi, infratuzilma va urbanizatsiya jarayonlarini shakllantirishi orqali jamiyat rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qurilishda CSR amaliyoti ko'plab mamlakatlarda hanzur rivojlanish bosqichida bo'lib, aksariyat hollarda u strategik boshqaruv vositasidan ko'ra, qonunchilik talablarini bajarishga qaratilgan mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda. Ya'ni, korxonalar ekologik me'yorlarga rioya qilish, mehnat xavfsizligi standartlarini bajarish yoki soliq va audit talablarini ado etish bilan cheklanmoqda. Bunday yondashuv CSRning haqiqiy mohiyatini, ya'ni uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlash, manfaatdor tomonlar bilan muvozanatli munosabatlarni shakllantirish va innovatsion rivojlanish omili sifatidagi rolini to'liq ochib bera olmaydi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, CSR qurilish kompaniyalarining strategik rejalashtirish tizimiga integratsiya qilinganda uning samaradorligi sezilarli darajada ortadi. ESG mezonlari asosida baholash, "yashil" sertifikatlash tizimlari (LEED, DGNB va boshqalar), nomoliyaviy hisobotlarni tayyorlash hamda manfaatdor tomonlar bilan ochiq muloqot mexanizmlarini joriy etish CSRni korporativ boshqaruvning ajralmas qismiga aylantiradi. Natijada kompaniyaning investitsiya jozibadorligi oshadi, brend obro'si mustahkamlanadi va uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlik ta'minlanadi.

Shu nuqtai nazardan, qurilish sohasida CSRni rivojlantirish faqat nazorat mexanizmi sifatida emas, balki strategik raqobat ustunligi va barqaror rivojlanish omili sifatida qaralishi lozim.

Qurilish sohasi iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri sifatida mamlakat infratuzilmasini shakllantirish, urbanizatsiya jarayonlarini jadallashtirish hamda aholi turmush sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Mazkur tarmoqning multiplikativ ta'siri sanoat, transport, energetika va uy-joy qurilishi bilan uzviy bog'liq. Shu bilan birga, qurilish sohasi yuqori darajadagi tabiiy resurs iste'moli, energiya sarfi va karbon chiqindilari bilan tavsiflanadi. Global statistik ma'lumotlarga ko'ra, qurilish sektori umumiy energiya iste'molining 35–40 foizini hamda karbon emissiyasining 30 foizdan ortig'ini tashkil etadi.

Bunday sharoitda qurilish korxonalarida korporativ ijtimoiy mas'uliyat (KIM/CSR)ni joriy etish nafaqat ijtimoiy majburiyat, balki uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi strategik zaruratga aylanmoqda.

Qurilish sohasida KIM uchta o'zaro bog'liq yo'nalishda namoyon bo'ladi: ekologik, ijtimoiy va boshqaruv (ESG).

1. Ekologik mas'uliyat (Environmental)

Ekologik mas'uliyat qurilish jarayonida atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini o'z ichiga oladi. Bular jumlasiga quyidagilar kiradi:

- qurilish chiqindilarini saralash va qayta ishlash;
- energiya tejankor va kam emissiyali texnologiyalarni qo'llash;
- qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish;
- "yashil qurilish" standartlariga (LEED, BREEAM va boshqalar) rioya qilish;
- ekologik audit va monitoring tizimlarini joriy etish.

Ekologik mas'uliyat nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilishga, balki energiya va resurs xarajatlarini qisqartirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishga ham xizmat qiladi.

2. Ijtimoiy mas'uliyat (Social)

Qurilish sohasi mehnat xavfi darajasi yuqoriligi bilan ajralib turadi. Shu bois ijtimoiy mas'uliyat quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi:

- mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi standartlariga qat'iy rioya qilish;
- xodimlarni muntazam ravishda o'qitish va malakasini oshirish;
- adolatli ish haqi hamda ijtimoiy paket bilan ta'minlash;
- infratuzilmaviy loyihalarda ijtimoiy muhitni yaxshilash.



Ijtimoiy mas'uliyatni samarali amalga oshirish ishchi kuchining barqarorligini ta'minlaydi va korxonaga imidjini mustahkamlaydi.

3. Boshqaruv (Governance)

Boshqaruv komponenti KIMning institutsional asosini tashkil etadi. Ushbu yo'nalish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- moliyaviy va nomoliyaviy hisobotlarning shaffofligi;
- manfaatdor tomonlar (stakeholderlar) bilan ochiq muloqot;
- korrupsiyaga qarshi mexanizmlarni joriy etish;
- direktorlar kengashi va boshqaruv tizimi samaradorligini oshirish;
- ESG hisobotlarini tayyorlash va e'lon qilish.

Boshqaruv mexanizmlarining takomillashuvi investorlar ishonchini mustahkamlaydi hamda korxonaning uzoq muddatli kapital qiymatini oshirishga xizmat qiladi.

Jahon amaliyotida korporativ boshqaruv modellari KIMning rivojlanish darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi (1-jadval).

1-jadval. Korporativ boshqaruv modellari va KIM xususiyatlari

Ko'rsatkichlar	Anglo-Amerika	Germaniya	Yaponiya
Nazorat mexanizmi	Bozor	Bank	Bank va korporatsiya
KIMni rag'batlantirish	Investorlar talablari	Ijtimoiy hamkorlik	Korporativ madaniyat
Xodimlar ishtiroki	Past	Yuqori	Yuqori
Ekologik standartlar	Majburiy hisobot	Qat'iy nazorat	Uzoq muddatli strategiya
Investitsiya muddati	Qisqa	Uzoq	Uzoq

Xalqaro amaliyotda mazkur uch yo'nalish ESG (Environmental, Social, Governance) mezonlari asosida kompleks tarzda baholanadi. ESG reytinglari bugungi kunda investitsiya qarorlarini qabul qilishda muhim omilga aylangan. Investorlar nafaqat moliyaviy ko'rsatkichlarga, balki kompaniyaning ekologik va ijtimoiy barqarorligiga ham alohida e'tibor qaratmoqda. Shunday qilib, qurilish sohasida KIMni joriy etish korxonaning nafaqat ijtimoiy mas'uliyatini, balki uning strategik barqarorligini ham ta'minlovchi mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

Qurilish sohasida korporativ ijtimoiy mas'uliyatni samarali joriy etish ko'p jihatdan mamlakatdagi korporativ boshqaruv modeli, kapital bozori rivojlanish darajasi hamda davlat siyosatiga bog'liq. Xalqaro amaliyotda uchta asosiy model — Angliya–Amerika, Germaniya va Yaponiya modellari — keng tarqalgan bo'lib, ular qurilish kompaniyalarida ESG tamoyillarining shakllanishiga turlicha ta'sir ko'rsatadi.

Angliya–Amerika modeli. AQSh va Buyuk Britaniyada korporativ boshqaruvning Angliya–Amerika modeli ustuvor hisoblanadi. Ushbu model aksiyadorlik kapitalining tarqoqligi va rivojlangan kapital bozori bilan tavsiflanadi. Qurilish kompaniyalari ESG hisobotlarini muntazam e'lon qiladi hamda investorlar oldida yuqori darajadagi shaffoflikni ta'minlaydi. Mazkur modelda LEED (Leadership in Energy and Environmental Design) kabi ekologik sertifikatlash tizimlari keng qo'llaniladi. LEED sertifikatiga ega obyektlar energiya samaradorligi, suv resurslaridan oqilona foydalanish va ekologik materiallardan foydalanish mezonlari asosida baholanadi.

Modelning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- kapital bozori orqali qat'iy monitoring;
- institutsional investorlar tomonidan ESG talablari qo'yilishi;
- ekologik auditning yuqori darajasi (70–90 foiz);
- nomoliyaviy hisobotlarning ochiqligi.

Ushbu modelning afzalligi shundaki, yuqori shaffoflik investitsiya jozibadorligini oshiradi va qurilish kompaniyalariga nisbatan arzon kapital jalb qilish imkonini beradi. Biroq modelning kamchiligi qisqa muddatli foydaga yo'naltirilganlik xavfi bilan bog'liq. Aksiyadorlar tezkor dividend va kapital o'sishini talab qilgani sababli, ayrim hollarda uzoq muddatli ekologik investitsiyalar ikkinchi darajaga tushib qolishi mumkin.

Germaniya modeli. Germaniya modeli ikki pog'onali boshqaruv tizimi bilan ajralib turadi. Unda boshqaruv organlari kuzatuv kengashi va ijro organidan iborat bo'lib, kuzatuv kengashida xodimlar vakillarining ishtiroki ijtimoiy muvozanatni ta'minlaydi. Qurilish kompaniyalari DGNB (Deutsche Gesellschaft für Nachhaltiges Bauen) ekologik sertifikatlash tizimidan keng foydalanadi. Ushbu tizim binolarning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini kompleks baholashni nazarda tutadi.

Modelning asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

- uzoq muddatli investitsion siyosat;
- bank nazorati va moliyaviy intizomning kuchliligi;
- ekologik talablarning qat'iyligi;



- xodimlar manfaatlarini hisobga olish.

Germaniya modeli ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lib, qurilish kompaniyalarida ekologik va mehnat xavfsizligi standartlari yuqori darajada joriy etilgan. Ushbu modelda investorlar asosan uzoq muddatli barqaror o'sishga e'tibor qaratadi.

Yaponiya modeli. Yaponiya modeli korporativ madaniyat va uzoq muddatli hamkorlik tamoyillariga asoslanadi. "Keiretsu" tizimi doirasida banklar va korporatsiyalar o'rtasida yaqin iqtisodiy aloqalar shakllangan. Qurilish kompaniyalari energiya samaradorligi va innovatsion qurilish materiallaridan foydalanishga katta e'tibor qaratadi.

Modelning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- banklar va korporatsiyalar o'rtasida uzoq muddatli hamkorlik;
- strategik barqarorlikka yo'naltirilgan boshqaruv;
- ekologik innovatsiyalarga muntazam sarmoya kiritish;
- korporativ madaniyatning kuchliligi.

Yaponiya modelida qisqa muddatli foydadan ko'ra barqaror rivojlanish ustuvor hisoblanadi. Qurilish kompaniyalari energiya samarador binolar, zilzilabardosh inshootlar hamda innovatsion texnologiyalarni keng qo'llaydi. Bu esa ekologik xavflarni kamaytirish va uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Ushbu uch modelni qiyosiy tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki:

- Angliya–Amerika modeli shaffoflik va investorlar talablari bilan ajralib turadi;
- Germaniya modeli ijtimoiy muvozanat va ekologik intizomni ta'minlaydi;
- Yaponiya modeli esa uzoq muddatli barqarorlik va innovatsiyalarga tayanadi.

Qurilish sohasida korporativ ijtimoiy mas'uliyatni samarali joriy etish uchun ushbu modellarning ijobiy jihatlarni milliy sharoitga moslashtirish muhim hisoblanadi (2-jadval).

2-jadval. Qurilish sohasida xalqaro KIM amaliyoti

Yo'nalish	AQSh	Germaniya	Yaponiya
Yashil qurilish sertifikat	LEED	DGNB	CASBEE
Energiya samaradorligi	Majburiy	Qat'iy nazorat	Davlat dasturi
Ijtimoiy hisobot	GRI	ESG bilan integratsiya	Korporativ kodeks
Mehnat xavfsizligi	OSHA	Davlat nazorati	Korporativ standart

2-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda qurilish sohasida korporativ ijtimoiy mas'uliyat tizimli va institutsional asosda shakllangan. AQShda "yashil qurilish"ni sertifikatlash tizimi (LEED) hamda OSHA mehnat xavfsizligi standartlari orqali qat'iy nazorat mexanizmlari joriy etilgan bo'lsa, Germaniyada DGNB sertifikat va ESG bilan integratsiyalashgan yondashuv ekologik hamda ijtimoiy mas'uliyatni kompleks boshqarish imkonini beradi. Yaponiyada esa CASBEE tizimi va korporativ kodekslar asosida uzoq muddatli barqarorlik hamda ichki intizomga tayangan model shakllangan.

Umuman olganda, jadval ma'lumotlari shundan dalolat beradiki, ushbu mamlakatlarda KIM ekologik sertifikatlash, energiya samaradorligi talablari, ijtimoiy hisobot va mehnat xavfsizligi tizimlari orqali majburiy yoki qat'iy tartibga solinadigan mexanizm sifatida amal qiladi. Bu holat qurilish kompaniyalarining barqaror rivojlanishini ta'minlash hamda ularning investitsiya jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi (3-jadval).

3-jadval. Qurilish sohasida KIM: xalqaro va mahalliy holat

Ko'rsatkichlar	Rivojlangan davlatlar	O'zbekiston
ESG hisobot	Majburiy yoki yarim majburiy	Ixtiyoriy
Ekologik audit	70–90 foiz	18 foiz
Yashil sertifikat	Keng qo'llaniladi	Cheklangan
Xodimlar ishtiroki	Yuqori	Past
Davlat rag'bat	Mavjud	Cheklangan

3-jadval ma'lumotlari qurilish sohasida korporativ ijtimoiy mas'uliyatning xalqaro va mahalliy darajadagi rivojlanish tafvutlarini yaqqol namoyon etadi. Rivojlangan davlatlarda ESG hisobotlari majburiy yoki yarim majburiy tusga ega bo'lib, kompaniyalar moliyaviy va nomoliyaviy faoliyati yuzasidan muntazam ravishda ochiq



axborot taqdim etadi. O'zbekistonda esa ESG hisobot amaliyoti asosan ixtiyoriy xarakterga ega bo'lib, bu holat shaffoflikni bosqichma-bosqich oshirish uchun muhim imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

Ekologik audit ko'rsatkichlari o'rtasidagi sezilarli farq (70–90 foizga nisbatan 18 foiz) ekologik boshqaruv tizimining institutsional rivojlanish darajasini aks ettiradi. Rivojlangan mamlakatlarda “yashil” sertifikatlash keng qo'llanilayotgan bo'lsa, mahalliy amaliyotda bu jarayonni tizimli yo'lga qo'yish uchun salohiyat mavjud. Bu yo'nalishda bosqichma-bosqich islohotlar muhim natijalar berishi kutiladi.

Shuningdek, xodimlar ishtiroki rivojlangan davlatlarda yuqori darajada ta'minlangan bo'lsa, O'zbekistonda ushbu ko'rsatkichni oshirish uchun institutsional mexanizmlarni kuchaytirish imkoniyati mavjud. Davlat tomonidan rag'batlantirish mexanizmlarining mavjudligi ham muhim omil bo'lib, rivojlangan mamlakatlarda ekologik va ijtimoiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash tizimi shakllangan, mahalliy sharoitda esa ushbu yo'nalishni kengaytirish istiqbollari mavjud.

Umuman olganda, jadval tahlili O'zbekistonda qurilish sohasida KIMni yanada institutsionallashtirish, ESG hisobotlarini kengaytirish hamda davlat rag'bat mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini asoslab beradi.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, qurilish sohasida korporativ ijtimoiy mas'uliyat (KIM/CSR) bugungi kunda strategik boshqaruvning muhim elementiga aylanmoqda. Qurilish tarmog'ining ekologik yuklamasi, mehnat xavfining nisbatan yuqoriligi va infratuzilmaviy ahamiyati KIMni oddiy ijtimoiy tashabbus sifatida emas, balki barqaror rivojlanishni ta'minlovchi samarali mexanizm sifatida ko'rishni taqozo etadi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki:

- Angliya–Amerika modeli shaffoflik va investorlar talablari orqali KIMni rag'batlantiradi;
- Germaniya modeli ijtimoiy muvozanat va ekologik intizomga tayanadi;
- Yaponiya modeli esa uzoq muddatli barqarorlik va innovatsiyalarga asoslanadi.

Rivojlangan davlatlarda ESG hisobotlari, ekologik audit va “yashil” sertifikatlash tizimlari keng joriy etilgan bo'lib, ular investitsiya jozibadorligini oshiruvchi muhim omil hisoblanadi.

O'zbekiston qurilish sohasida ham KIM elementlari mavjud bo'lib, ularni tizimli rivojlantirish orqali institutsional samaradorlikni yanada oshirish mumkin. Xususan, ESG hisobot amaliyotini kengaytirish, ekologik audit qamrovini oshirish, “yashil” sertifikatlash tizimini rivojlantirish va davlat rag'batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish barqaror rivojlanish tamoyillarini kompleks joriy etish uchun muhim zamin yaratadi.

Shunday qilib, qurilish sohasida KIMni rivojlantirish iqtisodiy samaradorlik, investitsiya jozibadorligi va ekologik barqarorlikni ta'minlovchi strategik omil sifatida qaralishi lozim.

O'zbekiston qurilish sohasida korporativ ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirish maqsadida quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

1. Normativ-huquqiy takomillashtirish

• Yirik qurilish kompaniyalari uchun ESG yoki nomoliyaviy hisobotlarni bosqichma-bosqich majburiy joriy etish;

- Ekologik audit tizimini kuchaytirish va litsenziyalangan monitoring mexanizmlarini shakllantirish;
- Davlat xaridlari va tender jarayonlarida KIM mezonlarini baholash indikatorlari sifatida joriy etish.

2. Iqtisodiy rag'batlantirish

- Energiya tejankor va “yashil” texnologiyalarni qo'llagan korxonalariga soliq imtiyozlari berish;
- “Yashil” sertifikatga ega qurilish obyektlariga imtiyozli kreditlar ajratish;
- Qayta ishlangan materiallardan foydalanuvchi korxonalarini subsidiyalash.

3. Institutsional mexanizmlarni kuchaytirish

- Qurilish korxonalarida ESG yoki barqarorlik bo'yicha alohida bo'limlar tashkil etish;
- Kuzatuv kengashlari tarkibida barqaror rivojlanish bo'yicha qo'mitalarni shakllantirish;
- Manfaatdor tomonlar bilan muntazam muloqot platformalarini yo'lga qo'yish.

4. Kadrlar salohiyatini oshirish

- Oliy ta'lim muassasalarida barqaror qurilish va ESG bo'yicha maxsus kurslarni joriy etish;
- Qurilish korxonalarida ekologik menejment va mehnat xavfsizligi bo'yicha treninglar tashkil etish.

5. Axborot ochiqdigi va shaffoflikni oshirish

- Milliy ESG reyting tizimini ishlab chiqish;
- Qurilish korxonalarining ochiq ma'lumotlar bazasini yaratish;
- KIM bo'yicha yillik milliy hisobotlarni e'lon qilish amaliyotini yo'lga qo'yish.

Qurilish sohasida korporativ ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirish qisqa muddatli xarajat emas, balki uzoq muddatli investitsiya sifatida qaralishi zarur. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ekologik, ijtimoiy va boshqaruv omillarini strategik rejalashtirishga integratsiya qilgan kompaniyalar bozorda yuqori raqobat ustunligiga ega bo'ladi.

O'zbekiston sharoitida KIMni tizimli ravishda joriy etish qurilish tarmog'ining barqaror rivojlanishi, xalqaro integratsiyasi va investitsiya jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, qurilish sohasida korporativ ijtimoiy mas'uliyat (KIM/CSR) bugungi kunda alohida ijtimoiy tashabbus emas, balki korxonalarining uzoq muddatli raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishini ta'minlovchi strategik boshqaruv elementi sifatida namoyon bo'lmoqda. Qurilish tarmog'ining yuqori ekologik yuklamasi, sezilarli resurs sarfi va ijtimoiy ahamiyati KIMni tizimli asosda joriy etish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Xalqaro tajriba tahlili Angliya–Amerika, Germaniya va Yaponiya modellarida KIMning turli institutsional mexanizmlar orqali rivojlanganini ko'rsatdi. Angliya–Amerika modeli shaffoflik va investorlar talablari orqali KIMni rag'batlantirsa, Germaniya modeli ijtimoiy muvozanat va ekologik intizomga tayangan holda barqarorlikni ta'minlaydi. Yaponiya modeli esa korporativ madaniyat, uzoq muddatli hamkorlik va innovatsiyalar orqali KIMni strategik rivojlanish omiliga aylantiradi. Ushbu modellarning umumiy jihati shundaki, ularda ESG hisobotlari, ekologik audit va "yashil" sertifikatlash tizimlari keng joriy etilgan bo'lib, bu holat investitsiya jozibadorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Qiyosiy tahlil natijalari O'zbekiston qurilish sohasida KIM elementlari mavjud bo'lsa-da, ularni institutsionallashtirish darajasi hali yetarli emasligini ko'rsatdi. Xususan, ESG hisobot amaliyotining asosan ixtiyoriy xarakterga ega ekanligi, ekologik audit qamrovining pastligi va "yashil" sertifikatlash tizimining cheklanganligi sohada barqaror rivojlanish tamoyillarini to'liq joriy etishga to'sqinlik qilmoqda. Shu bilan birga, mavjud normativ-huquqiy baza va islohotlar jarayoni KIMni bosqichma-bosqich rivojlantirish uchun zarur institutsional zamin mavjudligini ko'rsatadi.

Shu munosabat bilan, O'zbekiston qurilish sohasida korporativ ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirish maqsadida quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish zarur. Yirik qurilish kompaniyalari uchun ESG yoki nomoliyaviy hisobotlarni bosqichma-bosqich majburiy joriy etish, ekologik audit tizimini kuchaytirish hamda davlat xaridlari va tender jarayonlarida KIM mezonlarini baholash indikatorlari sifatida qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan, iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarini kengaytirish lozim. Energiya tejamkor va "yashil" texnologiyalarni joriy etgan korxonalariga soliq imtiyozlari berish, "yashil" sertifikatga ega obyektlarga imtiyozli kreditlar ajratish hamda qayta ishlangan materiallardan foydalanuvchi korxonalarni subsidiyalash KIMni amaliyotga tatbiq etishni tezlashtiradi.

Uchinchidan, institutsional mexanizmlarni mustahkamlash zarur. Qurilish korxonalarida ESG yoki barqarorlik bo'yicha alohida bo'limlar tashkil etish, kuzatuv kengashlari tarkibida barqaror rivojlanish bo'yicha qo'mitalarni shakllantirish hamda manfaatdor tomonlar bilan muntazam muloqot platformalarini yo'lga qo'yish KIMni korporativ boshqaruv tizimiga chuqur integratsiya qilishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, kadrlar salohiyatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Oliy ta'lim muassasalarida barqaror qurilish va ESG bo'yicha maxsus kurslarni joriy etish, shuningdek, qurilish korxonalarida ekologik menejment va mehnat xavfsizligi bo'yicha muntazam treninglar tashkil etish zarur.

Beshinchidan, axborot ochiqligi va shaffoflikni kuchaytirish talab etiladi. Milliy ESG reyting tizimini ishlab chiqish, qurilish korxonalarining ochiq ma'lumotlar bazasini yaratish va KIM bo'yicha yillik milliy hisobotlarni e'lon qilish amaliyotini yo'lga qo'yish sohada shaffoflikni oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, qurilish sohasida korporativ ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirish qisqa muddatli xarajat emas, balki uzoq muddatli strategik investitsiya sifatida qaralishi lozim. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ekologik, ijtimoiy va boshqaruv omillarini strategik rejalashtirishga integratsiya qilgan kompaniyalar bozorda yuqori raqobat ustunligiga ega bo'ladi. O'zbekiston sharoitida KIMni tizimli ravishda joriy etish qurilish tarmog'ining barqaror rivojlanishi, xalqaro integratsiyasi va investitsiya jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston–2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5030957?ONDATE=06.10.2020>
3. Javeed S. A., Latief R., Cai X., Ong T. S., Qian S., Ul Haq A. What is the role of the board sustainability committee for corporate social responsibility? The moderating effect of gender diversity and ownership concentration // Journal of Cleaner Production. – 2022. – Vol. 379, Part 2.
4. Sarwar H., Aftab J., Ishaq M. I., Atif M. Achieving business competitiveness through corporate social responsibility and dynamic capabilities: Empirical evidence from an emerging economy // Journal of Cleaner Production. – 2023. – Vol. 386.
5. Alhosani N. H. I., Nobanee H. Board gender diversity and corporate social responsibility: A bibliometric analysis // Heliyon. – 2023. – Vol. 9, Issue 1.



6. Tang M., Wang Y. Tax incentives and corporate social responsibility: The role of cash savings from accelerated depreciation policy // *Economic Modelling*. – 2022. – Vol. 116.
7. González-Ramos M. I., Guadamillas F., Donate M. J. The relationship between knowledge management strategies and corporate social responsibility: Effects on innovation capabilities // *Technological Forecasting and Social Change*. – 2023. – Vol. 188.
8. Luo Y., Ma J., Wang Y., Ye A. Board internationalization and corporate social responsibility // *The North American Journal of Economics and Finance*. – 2022. – Vol. 63.
9. Suyunov D., Xoshimov E. Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv samaradorligini baholashning metodologik jihatlari // *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*. – 2018. – № 2.
10. Xoshimov E. A., Murataev M. M. Korporativ ijtimoiy mas'uliyat aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish yo'nalishi sifatida // *Korporativ va loyiha boshqaruvi: joriy holat, muammolar va zamonaviy mexanizmlar*. – 2021.
11. Ashurov Z. A. Korporativ ijtimoiy mas'uliyat konsepsiyasi va uni O'zbekistonda joriy etish muammolari // *O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni shakllantirishda menejment va korporativ boshqaruvning ahamiyati*. – 2020.
12. Karimov I. O. Attracting investment projects to the construction industry and improving their efficiency // *Ekonomika: analizi i prognozy*. – 2021. – № 2. – B. 127–134.
13. World Bank. SME Finance. URL: <https://www.worldbank.org/en/topic/smefinance> (murojaat sanasi: ko'rsatilmagan).
14. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti. URL: <https://www.stat.uz>
15. O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari milliy bazasi. URL: <https://www.lex.uz>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>